

**TIB QONUNLARI KITOBIDA BOSH MIYYA KASALLIKLARINI DAVOLASHDA  
ISHLATILGAN GIYOXLAR**

Zafarjon Mirzaolimovich Komilov

Ermatova Gulnora Axmadovna

Central Asian Medical University.

Farg'ona, O'zbekiston.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967-997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Hurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlanadi. UAfshona qishlog'ida Sitora ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino) edi. Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. O'sha kezlarda hukmdor Nuh Ibn Mansur betob bo'lib, saroy tabiblari uni davolashdan ojiz edilar. Dovrug'i butun shaharga yoyilgan yosh tabibni amirni davolash uchun saroya taklif qiladilar. Uning muolajasidan bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrdab boshlab Ibn Sino uchun Barcha tibbiy Bilimlarga yanada chuqr Kirishga Imkon paydo bo'ldi va o'zi xam tibbiy asarlar yoza boshladi Jumladan tib qonunlari kitobida Bosh ogrigi Bosh miya kasalliklari to'grisida shunday fikrlarni bildirgan.

Lekin shuni Xam takidlash kerakki Ibn Sino Bosh Kasalligi deb so'zlaganda Eshituv organlari, Ogiz boshligi organlarini xam nazarda tutgan.

Afsantki-Erman. Boshga quruqlik beradi. Shirasi boshni og'ritadi. Lekin men buni me'daga zarar qilganidan deb bilaman. Qaynatilgandagi bug'i quloq og'rig'iga foyda qiladi. Sharobdan ilgari ichilsa, xumorga foyda qiladi.

Uqxuvon-Moychechak. Uzoq uxlatuvchidir. Ho'lini hidlansa uxlatadi; yog'i quloq og'riqlarida foydalidir.

Isro-Gulsapsar ildizi. Uxlatadi, cho'zma bosh og'riqni yo'qotadi. Goho bunga qizilgul yog'i va sirka aralashtiriladi. Buning yolg'iz o'zi ham bosh og'rig'ini to'xtatadi, aksirtiradi. Buning qaynatmasi bilan og'izni chayish tish og'riqlarini qoldiradi. Yog'i sirka bilan qo'shilsa, quloq guvullashini, bosadi. Davomli nazlalarни to'xtatadi. Yog'i burun teshiklarining hidini ketkazadi. Qaynatmasi ham shun day. Uyquda qichqirish kasalida foyda qiladi.

Afyun-Qoradori. Uxlatuvchidir. Pilik bilan yeki piliksiz ko'tarilsaxam ham shu ta'sirni beradi. Gulning yog'i bilan ho'llab murr va za'faron bilan qo'shib alamli quloqqa tomizilsa, og'riqni qoldiradi. Davomli bosh og'riqni tuxtatib rohatlantiradi. Bu, fahm va zehnni buzadigan narsalardandir.

Banafsaj- Gunafsha. Gunafshani xidlash va surtish qondan bo'lgan bosh ogrigi qoldiradi deb takidlagan.

Basal-Piyoz. Sushi burunga yuborilsa, boshni toza qiladi. Boshning og'irlashganida, quloq shang'illashida, yiring va suv paydo bo'lishida quloqqa tomiziladi. Piyoz boshni

ogritadigan narsalardandir. Buni ko'p ishlatish uyqu bostiradi. Piyoz yomon xilt tug'dirgani uchun aqlga zarar qiladigan narsalardandir. Bu so'lakni ham ko'payti radi.

Baqla-Xamqo-Semizo't. Uni sharobga aralashtirib boshni yuvilsa, boshdag'i toshmalarga foyda qiladi. Dag'allikni silliqlaydigan xususiyati bilan tish qamashganini ketkazadi. Luqillaydigan issiq bosh og'rig'ini bosadi.

Javz-Yongoq. Boshni ogritadi. yaproqlarini shirasi qulorra iliq xolda tomizilsa qulorq origini qoldiradi yiringlashini oldini oladi, foyda qiladi. Xuzistonliklarni aytishicha, tilni ogir qilib ogizda yaralar paydo qiladi.

Xarmal-Isiriq. Bunda sharobning boshni mast qilguchidek quvvat bor.

Ximmas-No'xat. Boshdag'i rutubatli toshmalarga foyda qiladi. Nuxat ivitilgan suv esa tish og'rig'iga va milkdagi issiq va qattiq shishlarga foyda qiladi. Qulorlar ostidagi shishlarga ham foyda qiladi.

Yabrug-Mexrigiyox. Mudratib uxlataadi. Uni sharobga solib ichilsa, qattiq mast qiladi. Goho orqateshikka ko'tarib ishlatiladi, bunda uyqu bostiradi. Uni hidlash ham uxlataadi. Bu ta'sir yaprog'i ok, poyasiz xilida bo'ladi. Bu xilini erakak xili deydilar. Mehriyoni, ayniqsa, uning oq yaproqligini ko'p ishlatish va hidlash sakta kasaliga mubtalo qiladi. Bundan uyqusizlik kasaliga qarshi ichiladigan sharob tayyorlanadi. Bu quyidagicha tayyorlanadi: ildizining qobig'idan uch mann miqdorini shirin sharobning bir matritisiga solib, bundan uch kiaf ichiriladi. Ba' zan mehriyivo qobig'ini sharobga solib qattiq qaynatilsa, sharob uning quvvatini o'ziga oladi. Qattiq uxlatalish uchun bundan ko'proq miqdorda va uyqu keltirish uchun esa ozroq miqdorda iste'mol qilinadi. Ba'zi tabiblar mehriyivo yegan kishilarni uyg'otish uchun qattiqsov uvgaga o'tqazadilar. Men guman qilamanki, bundan maqsad haroratni [ichda] toplash bo'lsa kerak. Bunday sharob sezgilarni o'tmaslashtiradi. Upi dog'lashda, xatna qilishda va nishtar urishda ichiriladi. Chunki buni ichgan kishi karaxt bo'lib, uyqu bosib, og'riq alamini sezmaydi. Uchinchi xilining ildizidan bir miskol ichgan yoki tolqon, non yoki boshqa biron pishirilgan narsa bilan qo'shib yegan kishining aqli chuvalashib, o'sha on uyquga ketadi. Shu holatda uchto'rt soat qolib hech narsa sezmaydi va idrok qilmaydi. Mehriyoning qobig'idan olovda qizdirmasdan quyidagicha sharob tayyorlanadi: undan uch mann olib unga bir miqdor shirin sharob qo'shiladi va buning uch kiafini biron a'zosini kesib [operatsiya qilish zarur bo'lgan kishiga ichiriladi. Buni hidlagan kishini uyqu bosadi. Shirasi ham shunday ta'sir beradi].

Qurunb-Karam. Qaynatmasi va urug'i mast bo'lishni kechiktiradi; boshning qasmog'iga foyda qiladi, karam shirasini burunga yuborilsa, miyani tozalaydi. Tilii quritish, uxlatalish (va yuzni tozalash) buning xususiyatlaridandir.

Quzbura-Kashnich. Safro yo balg'am bug'idan paydo bo'lgan bosh aylanish va tutqanoqqa foyda qiladi. Kashnichning buglarning miyaga ko'tarilishini qaytarish xususiyati bor. Shuning uchun me'da bug'i sababli tutqanoqqa uchragan kishining ovqatiga solib beriladi. Ho'lini va quragini ko'p ishlata berish zehnni buzadi. Huli uxlataadi va burun qonashini to'xtatadi. Qurug'ining tolqoni va yangisi- ning shirasi bilan chayqash og'iz chaqalariga foyda qiladi.

Lison ul-Xamil-Bargibuz. Issiqlikdan kelib chiqadigan quloq og'rig'iga foyda qiladi. Ildizining qaynatmasi (bilan og'iz chayqalsa, tish og'rig'iga foyda qiladi. Lavlagi o'rniga bargizub solib yasmiq oshi qilinsa, tutqanoqqa foyda qiladi Barglarining shirasini quloq og'rig'iga qarshi tomizilsa og'riqni bosadi. Ildizini chaynalsa yoki uning qaynatmasi bilan og'iz chayqalsa, tish og'rig'ini to'xtatadi. Barglarining suvi ogiz chaqalanishini davolaydi.

Luban-Sut. Echki suti nazlalarda foyda qiladi va ularni to'xtatadi; O'tkirligini yumshatadi. Tomoqdag'i yaralarga ham foyda qiladi. Sut quruq mizojudan bo'ladigan g'amginlik va vasvasaga hamda esda saqlayolmaslik kasalligida yaxshi davodir. Sut tishlarga ziyon qiladi, uni yeydi, kovak qilib, uvalaydi, ayniqsa, tish sovuq mizoqli bo'lsa shunday qiladi. U milklarni bo'shashtiradi va undan so'ng asal, sharob yoki sikanjubin bilim og'izni chayqash kerak. Aytishlaricha, eshak suti bilan og'iz chayqalsa, tish va milklarni mahkamlaydi va bosh og'riqli, boshi aylanadigan, qulog'i shang'illaydigan kishilarga muvofiq kelmaydi, ayniqsa, sutni ichgandan sung uxlasar shunday bo'ladi. Qisqasi, u boshi zaif kishilarga zarar qiladi.

Laxm-Et, Go'shti. Mol go'shti va boshqa aytib o'tilgan g'aliz go'shtlar qurituvchiligi sababli (savdoni va) vasvasani keltirib chiqaradi. Latchaning go'shtini sharobga solib tutqanog'i bor kishiga ichiriladi.

Mo-Suv. Tutqanoq kasaliga uchraganlarga iliq suv foyda qiladi, qaynoq suv esa zarar qiladi. Dengiz suvining bug'i sovuq bosh og'rig'iga foyda qiladi. Misli suv oriz va quloq (kasalliklari uchun) foydalidir.

Mumiyo-Mumiyo. Mumiyo boshning bir tomon yarmining og'rig'iga, sovuq bosh og'rig'iga, tutqanoq va bosh aylanishiga foyda qiladi. Buning uchun bir habbasini Tog' rayhoni suvi bilan burunga tortiladi. Quloq og'rig'iga esa bir hab- basini yasmin yog'i solib tomiziladi. Qulog'dan yiring oqishiga qarshi bir arpa doni miqdoridagisini gul yog'i va go'ra uzumming suvi bilan qo'shib pilik bilan ishlatiladi. Til og'irlashuviga qarshi bir kirotni qunduz qirining bir habbasiga qo'shib bon yog'i bilan burunga tortiladi.

Narjios-Nargis. Nargis miyadagi tiqilmalarni ochadi va savdodan kelib chiqadigan rutubatli bosh og'rig'iga foyda qilali. Yog'i ham shunga muvofiq keladi, ammo issiq mizoqli boshlarni og'ritadi.

Sazob-Gazago't. Sarimsoq va piyoz hidlarini ketkazadi, cho'zma bosh og'rig'iga qarshi gazago'tni tolqon bilan qo'shib bog'lanadi, burun qonaganda uni sirkaga qo'shib burunga tortilsa, qonni to'xtatadi. (Gazago'tning) anor po'stida qizdirilgan shirasini qulog'qa tomizilsa, uni tozalaydi, og'rig'ini, shang'illashini va g'uvullashini bosadi, qurtini o'ldiradi, (agar ular tirik qolsalar, qulog'dan chiqaradi). Gazagutni bosh yaralariga ham surtiladi.

Inab us Salab-Ituzum. Karaxt qiladigan xilidan o'n ikki habbadan (ortik) ichilsa, jinnilikni keltirib chiqaradi. Suvi bilan g'arg'ara qilinsa, tildagi shishlarga foyda qiladi. Agar ildizining po'stlog'idan bir misqol og'irligidagini sharob bilan ichilsa, uxlataladi. Ituzumni juda mayda yanchib bog'lansa, bosh og'rig'ini tuzatadi, quloq ostidagi va miya pardalaridagi shishlarni tarqatadi; tomizilsa, quloq og'rig'iga foyda qiladi. (Uchinchi tur ituzum) ildizining po'stlog'ini sharob bilan qaynatib, qaynatmasini surtilsa, tish og'rig'iga foyda qiladi.

To'rtinchi turidan bir misqolishi sharob bilan ichilsa, ichuvchi kishida qo'rqninchli bo'Imagan xayollar paydo bo'ladi va u odam yengil, o'ziga tanish tushlar ko'radi).

Sabir-Sabir, alloy. Boshni safroviy chiqindilardan tozalaydi. Agar gul yog'i bilan qo'shib, peshona bilan chakkaga surtilsa, bosh og'rig'ini qaytaradi va uni tuzatadi. Burun va og'iz yaralariga foyda qiladi. Qadimgi tabobatda sabirning ezilganiga, tilning ikki chekkasida joylashgan mushaklardagi shishlarga qarshi asal va sharob bilan surtiladigan foydali dorilardan hisoblanadi. Haqi qatan ham sabir savdoni surib, melanxoliyada foyda qiladi. Fors sabiri aqlni va dilni o'tkirlashtiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ermatova, G. A., Teshaboev, U., & Mamatmusayeva, G. T. F. S. (2022). MOTORIC FUNCTION OF THE BILIARY SYSTEM AT CHILDREN CONVALESCENTIA VIRAL HEPATITIS" A" AND" B. AND THEIR CORRECTION (Doctoral dissertation).
2. Норматова, Ш. А., Ашуррова, М. Д., Эрматова, Г. А., Хожиматов, Х. О., Султонов, Г. Н., & Болтабоев, У. А. (2014). Актуальные проблемы экологии и здоровья населения в Узбекистане. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (5-2), 208-211.
3. Normatova, S. A., Ashurova, M. D., Ermatova, G. A., Khozhimatov, K. O., Sultonov, G. N., & Boltaboev, U. A. (2014). Current problems of ecology and public health in Uzbekistan. Current Problems of Humanities and Natural Sciences, (5-2), 208-211.
4. Эрматова, Г. А. (2011). Фактическое питание женщин фертильного возраста и его диетическая коррекция. Врач-аспирант, 47(4.5), 765-769.
5. Эрматова, Г. А. (2014). Фактическое питание и его влияние на здоровье женщин фертильного возраста. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4-2), 225-227.
6. Искандарова, Ш. Т., Расурова, Н. Ф., & Аминова, А. А. (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ПОЧВЫ В УСЛОВИЯХ ГОРОДА ТАШКЕНТА. «МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ, 122.
7. Бахритдинов, Ш. С., Султанов, О. К., Бабаев, О. И., Эрматова, Г., & Ашуррова, М. Д. (2016). Гигиеническая оценка фактического питания различных групп населения и его диетическая коррекция. Молодой ученый, (3), 245-247.
8. Эрматова, Г. А. (2016). ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКИХ БРОНХИТОВ У ДЕТЕЙ. Актуальные вопросы современной пульмонологии. Ма, 272.
9. Эрматова, Г. А. (2016). ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКА ВНЕБОЛЬНИЧНОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ. Актуальные вопросы современной пульмонологии. Ма, 285.

10. Эрматова, Г. А. (2016). РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ И ДИНАМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СМЕРТНОСТИ ОТ ТУБЕРКУЛЕЗА. Актуальные вопросы современной пульмонологии. Ма, 278.
11. Гульнара Ахмадовна Эрматова. (2023). РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ КАК ВАЖНАЯ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 212–216.
12. Ermatova, G. A., Teshaboev, U., & Mamatmusayeva, G. T. F. S. (2022). MOTORIC FUNCTION OF THE BILIARY SYSTEM AT CHILDREN CONVALESCENTIA VIRAL HEPATITIS" A" AND" B" AND THEIR CORRECTION (Doctoral dissertation).
13. Ahmadovna, E. G., & Odilovich, H. K. (2016). Influence factors of the environment on the state of health of the population at the regional level. European science review, (3-4), 88-89.
14. Эрматова, Г. А. (2016). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН В РЕГИОНАЛЬНОМ АСПЕКТЕ. In Материалы конференции отражают результаты исследований, посвященных инновациям в образовании и медицине и охватывают широкий спектр образовательных и научных направлений. Опубликованные работы представляют огромную ценность для широкого круга практикующих врачей: терапевтов, хирургов, инфекционистов, акушер-гинекологов, стоматологов, отоларингологов и др. (р. 255).
15. Nazirgulomovna, S. G., & Azizjon, K. S. (2023). Biophysics is the Foundation for the Development of Scientific Thinking. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 285-286.
16. Ботиров, М. Т., Норматова, Ш. А., & Кураматова, Ш. А. (2020). РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ВИРУСНЫХ ГЕПАТИТОВ И РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСА МЕРОПРИЯТИЙ ПО ОПТИМИЗАЦИИ СИСТЕМЫ КОНТРОЛЯ ВГ. In Университетская наука: взгляд в будущее (pp. 128-131).
17. Кураматова, Ш. А. (2023). УЛУЧШЕНИЕ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ КЛЕТОК ПЕЧЕНИ, ИНФИЦИРОВАННЫХ ВИРУСОМ ГЕПАТИТА В, ПУТЕМ ОБОГАЩЕНИЯ СОСТАВА ПИЩИ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
18. Kamalova, D. (2023). YOD TANQISLIGINING TA'SIRI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 135-139.
19. Камалова, Д. А. (2019). Изменения в практике оплаты труда на производстве. Международный научно-исследовательский журнал, (10-2 (88)), 67-69.
20. Камалова, Д. А., & Исхандарова, Ш. Т. (2013). Организация эффективных медико-санитарных мероприятий в борьбе с алкоголизмом и наркоманией. Вестник экстренной медицины, (3), 213-214.

21. Zafarbek Mirzaolimovich Komilov, & Qo'chqorov Oybek G'ulomovich. (2023). UBAYDULLOH KAHNOL – XVI ASR O'RTA SHARQ YIRIK OKULISTI . Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 217-220.
22. Комилова Дилдора Алишеровна. (2023). АДАПТАЦИЯ И АДАПТАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ ОРГАНИЗМА. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 221–223.
23. Kamalova, D. (2023). The value of the universal progressive model in working with mothers and children in the primary care system. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 20, 60-62.
24. Рузматова, Х. К., Камалова, Д. А., & Мухаммадова, Г. К. (2023). НАРОДНОЕ ЛЕЧЕНИЕ РАКА ЛЕГКИХ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
25. Normatova, S. A., Botirov, M. T., Ruzmatova, K. K., & ugli Mamarasulov, J. O. Hygienic Basis for Contamination of Food Products and Production of Dairy Products Until 2030. International Journal of Health and Medical Sciences, 4(1), 123-128.
26. Тешабоев, У. А., Рузматова, Х. К., Махаматов, У. Ш., & Сайдуллаева, К. М. (2021). АНАЛИЗ ПАЦИЕНТОВ С ИНФЕКЦИЕЙ COVID-19, РОЛЬ МИКРОЭЛЕМЕНТА ЦИНКА В ОРГАНИЗМЕ ЧЕЛОВЕКА И ЕГО РОЛЬ В РАСПРОСТРАНЕНИИ И ПРОФИЛАКТИКЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ. Экономика и социум, (5-2 (84)), 374-381.
27. Axmedova , Z., Imomova , M., & Mamadaliyev Muxammadjon Raxmatjon o'g'li, M. M. R. o'g'li. (2023). THE ELEMENT COMPOSITION OF THE INULA HELENIUM L PLANT AND USE IN MEDICINE. Scientific Journal of the Fergana State University, (3), 146.
28. Axmedova, Z. Q., & Qirg'izov, S. M. (2022). ANDIZ O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(5), 269-273.
29. Axmedova, Z. Q., Asqarov, I. R., & Qirg'izov, S. M. (2022). TARAXACUM OFFICINALE O'SIMLIGI ILDIZINING SIFAT NATIJALARI T AHLILI. In Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha (pp. 129-131).
30. Axmedova, Z. Q., & Qirg'izov Sh, M. TARAXACUM OFFICINALE O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBINI ANIQLASH ОПРЕДЕЛЕНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ TARAXACUM OFFICINALE DETERMINATION OF THE CHEMICAL COMPOSITION OF THE MEDICINAL PLANT TARAXACUM OFFICINALE. ActaCAMU.
31. Mirzayeva, D., & Ismoilova, D. (2022). FITONIMIK KOMPONENTLI INGLIZ BIRLIKARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. Science and innovation, 1(B6), 925-929.
32. Ismoilova, D. (2022). USING CHINESE SENTENCES WITH 把 (BA). Science and Innovation, 1(8), 1639-1642.
33. Исмаилова, Д. У., & Аббасова, Н. К. (2022). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ИНФОРМАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯГА ОИД ТЕРМИНОЛОГИЯ БЎЙИЧА ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТЛАР. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 137-140.

34. Mirzayeva, D., & Ismoilova, D. (2022). LEXICO-SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH UNITS WITH PHYTONYMIC COMPONENT. *Science and Innovation*, 1(6), 925-929.
35. Ismoilova, D. (2022). SEMANTIC FEATURES OF INFORMATION TECHNOLOGY TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(5), 194-196.
36. Khiloloy Ruzmatova Kabilovna. (2023). The Occurrence of Metabolic Syndrome in The Elderly Population. *Genius Repository*, 26, 33–35.
37. Рузматова, Х. К. РАКА ЛЕГКИХ В НАРОДНОЕ МЕДИЦИНЕ. In для проведения I-междунородной научно-практической онлайн-конференции «Актуальные вопросы медицинской науки в XXI веке» (р. 288).
38. Abdurakhmonovna, S. G. (2023). Characteristics of The Immunological Profile of Blood and Urine in Patients with Pyelonephritis. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 775-779.
39. Gulasalxon Qosimova Yuldashali qizi. (2023). CONSEQUENCES OF COGNITIVE CHANGES IN THE BRAIN. *PEDAGOGS Jurnalı*, 45(1), 11–14.